



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [30660-1540 \(online\)](https://doi.org/10.30660/1540)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 9

Published: 10.12.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF



Eshanova Zilola Qo'chqarovna

Andijon davlat universiteti doktoranti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Uzbekistan

zeshanova79@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-8162-356X>

SHARIFA SALIMOVA BAXSHIYONALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abstract: The article illuminated the features of works in the Bakhshiyana style in the poetry of Sharifa Salimova based on their analysis, is also highlighted the poetess's skill in using various elements of folklore to describe the problems of that time. It is also substantiated that Sh. Salimova's cycle "Bakhshiyana" lacks a uniform compositional structure and is crafted through the stylization of folk dastans, fairy tale motifs, and imagery.

Keywords: folklore, folk dastans, folk tales, folklorism, stylized folklore, dastan stylization, motif stylization, synthesis, bakhshiyana, bakhshi.

Annotatsiya: Maqolada Sharifa Salimova ijodidagi baxshiyona asarlar tahlili orqali ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda davr muammolari tasvirini berishda folklorning turli unsurlaridan foydalanishdagi shoira mahorati yoritilgan. Shuningdek, Sh.Salimovaning "Baxshiyona" turkumi bir xil kompozitsion strukturaga ega emasligi, xalq dostonlari, ertakona motiv va obrazlar stilizatsiyasi asosida shakllantirilgani asoslangan.

Kalit soʻzlar: folklor, xalq dostonlari, xalq ertaklari, folklorizm, stilizatsion folklorizm, doston stilizatsiyasi, motiv stilizatsiyasi, sintez, baxshiyona, baxshi.

Аннотация: В статье освещены особенности произведений в стиле бахшияна в творчестве поэтессы Шарифы Салимовой на основе их анализа, а также освещено мастерство поэтессы в использовании различных элементов фольклора для описания проблем того времени. Также обосновано, что цикл Ш.Салимовой “Бахшияна” не имеет одинаковой композиционной структуры и сформирован на основе стилизации народных дастанов, сказочных мотивов и образов.

Ключевые слова: фольклор, народные дастаны, народные сказки, фольклоризм, стилизационный фольклоризм, стилизация дастана, стилизация мотива, синтез, бахшияна, бахши.

Language: Uzbek

Citation: Eshanova, Z. (2024). SHARIFA SALIMOVA'S CHARACTERISTICS OF BAHKSHIYANA. Universal International Scientific Journal, 1(9), 57–63. <https://doi.org/10.69891/3060-4540.2024.85.10.001>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14444301>

Crosreff doi: <https://doi.org/10.69891/3060-4540.2024.85.10.001>

KIRISH

Usmon Azim, Rauf Subhon, Halima Xudoyberdiyeva, Faxriyor, Xurshid Davron, Sharifa Salimova kabi shoir va shoiralar gʻoyaviy maqsadlarini berishda folklor sintezi va folklorizmlardan ijodiy foydalanib kelmoqdalar. Xususan, ularning ijodida xalq dostonlari stilizatsiyasi asosida yaratilgan baxshiyona asarlar mavjud. Biz avvalgi maqolalarimizda turli ijodkorlar, xususan, Halima Xudoyberdiyeva ijodidagi baxshiyona asarlarni tadqiq qilgan edik[1]. Ushbu maqolamizda esa Sharifa Salima ijodidagi “Baxshiyona” turkumidagi asarlarning tahlili orqali shoiraning folklorga xos syujet, motiv va obrazlardan ijodiy foydalanish mahoratini yoritishni maqsad qildik. Maʼlum bir ijodkorning xalq ogʻzaki ijodi anʼanalari

vositasida yaratilgan ijod namunalarini oʻrganish istiqloq davri oʻzbek sheʼriyatining oʻziga xosligi, folklordan ijodiy foydalanish tamoyilining qay holda istefoda qilinish qonuniyatlarini yoritishga xizmat qiladi. S.Mirzayeva ham “Folklor va yozma adabiyot munosabatlari masalasi tadqiq etilar ekan, tarixiylik tamoyillariga amal qilishni unutmash kerak. Chunki, birinchidan, ushbu tamoyil istalgan soʻz sanʼatkorining ijodidagi folklor anʼanalarining oʻrni, ularning muayyan adib yoki shoir ijodidagi rivojlantirilganligi aniq tarixiy davr nuqtayi nazardan, qolaversa, individual ijodkor mahorati nuqtayi nazaridan toʻgʻri, obyektiv yoritilishiga imkon berishini [2,6] taʼkidlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek adabiyotshunosligida J.Suvonova [3], N.Shukurov[4], F.N.Buriyeva[5], D.Xoliqova[6], Sh.Jumanovalar[7] baxshiyona asarlarning turli jihatlarini o'rganganlar. Ushbu tadqiqotlarning hech birida Sharifa Salimova ijodidagi baxshiyona asarlar tadqiqot obyekti sifatida olinmagan. Shu bois shoira ijodidagi baxshiyona asarlar struktural va germeneytik tahlil metodlari asosida tahlil qilindi, ularning o'ziga xos xususiyatlari yoritildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Lirikada turkumning mohiyati, lirik turkumning paydo bo'lishi, yaratilishi va rivojlanish qonuniyatlarini yoritib bergan M.N.Darvinga ko'ra, "lirik turkum — tanlangan asarlar sarhadida paydo bo'ladigan yangi ma'nolar bilan kesishgan, butunlik g'oyasi bilan singib ketgan va bu butunlikning badiiy dinamik qiyofasini tiklaydigan shakl [8,157-173]. Sharifa Salimovanning "Baxshiyona" turkumida "Baxshiyona", "Ertakdan so'ng", "Yo'qolgan ishonch yoxud yolg'onchi shoh haqida" deb nomlangan uch asar mavjud. Ko'rinadiki, shoira folklor an'analari, xalq dostonlari, ertakona obraz va motivlar stilizatsiyasi asosidagi asarlarni turkum sifatida olmoqda. Ushbu turkumdagi asarlar tematik mundariyasi, kompozitsion xususiyatlariga ko'ra mustaqil. Ular alohida olinganda ham ma'lum g'oyaviy mazmuni anglatishi mumkin. Biroq ushbu turkumdagi

asarlar bir butunlikda olinsa, mazmuniy yaxlit va tugal konsepsiya kelib chiqadi. Sh.Salimovanning "Baxshiyona" turkumi bir xil kompozitsion strukturaga ega emas, bunday "tematik jihatdan turkumlangan sikllarda esa janriy rang-baranglik kuzatilaveradi." [9, 355]

Sharifa Salimovanning "Baxshiyona" asari ham boshqa baxshiyonalar kabi xalq dostonlariga xos nasr va nazm ifoda usuli asosida shakllantirilgan. Unda xalq dostonlariga xos epik voqelik bayoni nasriy yo'lda sa'j asosida berilgan, murojaat va kechinma tasviri esa 7 bo'g'inli nazmda ifodalangan. Uning kirish qismida xalq dostonlari zachin qismidagidek ayol hayoti haqida axborot beriladi: "Ayol baxtli edi, vaqti choq edi. Yurti behisht kabi to'kkan bog' edi. O'g'illari suyangan tog'i, qizlari husn mulkiining shohi edi. Ona tufrog'i quyosh emib bilqillab turardi, qozonida moy kilkillab turardi." [10,18] Asardagi birgina voqelik bayoni orqali ayol kechinmalar tasviri berilgan. Asar konflikti ham axborot tarzida aytib o'tiladi: "Kunlardan bir kun charxi kajraftor teskari aylandi: daryolar quridi, baliqlar chiridi. Yerning sho'ri peshonasiga tepdi. Sarin havolar qumu tufrog' sepd." [10]

Ushbu "Baxshiyona"ning asosiy obrazlari ayol va baxshi. Ayol umumlashma obraz sifatida xalq, vatan timsoli sifatida kelsa, el baxshisi unga yo'l ko'rsatuvchi rahnamo,

yorug' kunlar haqida xabar beruvchi obraz sifatida g'aydalanadi. Shoira o'z davridagi ummonning qurishi va u bilan bog'liq boshqa muammolarni xalq dostonlari stilizatsiyasi asosida yoritadi.

“Baxshiyona”da makon va zamon kategoriyasi xalq dostonlaridan farqlanadi, unda hozirgi kundagi voqelik tasviri beriladi: Ona allalari yoddan chiqa boshladi, xastalik go'daklarni bir-bir yiqqa boshladi. Ayol chidolmadi: uydan chiqib yurt aylandi. Bog' aylandi, ko'rdiki ahvol chatoq, ko'ksi to'la dog' aylandi. Qaddi bukildi, ostonaga yetar yetmas yiqildi. Shunda uzoqdan bo'taday bo'zlab el baxshisi keldi.”[10] Sharifa Salimovaning “Baxshiyona” asarida ham el baxshisi obrazi mavjud va muallifning g'oyaviy maqsadi bu obraz orqali beriladi. U allalari yodidan ko'tarilgan ayollarga qarata:

Qaddingni tik tut, ayol,

Alamlaring yut, ayol.

Boq, bu bir kam dunyoda

Kimning baxti but, ayol [10] – deydi.

El baxshisining nasihatlarini nazmda berilgan, el baxshisi xalqning boshiga bunday qiyinchiliklarning tushishiga sabab bo'lgan omillarni ko'rsatadi. El baxshisiga ko'ra, begonalarga ishonib, g'ururni ularning qo'liga tutqazish hayot degan o'yinda ko'p narsalarni yutqazishga olib kelgan. Sharifa Salimova el baxshisi tilidan yurtning mustamlaka qilingani,

tilining sotilgani haqidagi fikrlarni va erksizlik yurtdagi ummonning qurishiga va u bilan bog'liq muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgani haqidagi xulosasini beradi:

Bilmabmidning vafoga,

Bu olam torligini.

Behishtdayin bu yurtda

Ilonlar borligini.

Alla aytgan tilingni

Sotgan asli kim edi?

O'z elini tufroqqa

Otgan asli kim edi?[10]

Baxshi obrazi ushbu asarda ayollarni g'aflat uyqusidan uyg'otib, yosh avlodni vatanga muhabbatli qilib tarbiyalashga chaqiruvchi obraz sifatida keladi. Baxshi so'zlaridan ruhsiz tanasiga jon kirgan ayol “quriyotgan ummon sohillari tomon yo'l olibdi”, deyiladi “Baxshiyona”ning xulosa vazifasini bajaruvchi so'nggi qismida. Ushbu asar xotimasi: “Baxshining so'zidan ayolning ruhsiz tanasiga jon, yonoqlariga qon yuguribdi.... Baxshi bilan ko'p so'zlashibdi, xo'p so'zlashibdi, xo'p sirlashibdi. So'ng ayol xasta bolasini bag'riga bosib, baxshi do'mbirasini yoniga osib, quriyotgan ummon sohillari tomon yo'l olibdi”[10,19], deya yakunlanadi.

Bu o'rinda shuni ham ta'kidlash lozimki, bu davr adabiyotidagi epos va she'riyat sintezi, baxshi haqidagi mifologik qarashlar sintezi kabi

jihatlari ko'zga tashlangan ekan, ular folkloridagi baxshilardan nimasi bilan farq qiladi, degan haqli savol tug'iladi. Bu davr adabiyotida yaratilgan baxshi obrazi elni ga'flat uyqusidan uyg'otuvchi, unga o'zligini anglatuvchi, farzandlarni vatanga muhabbatli qilib tarbiyalashga undovchi, xullaski, xalqni yorug' kunlarga olib chiquvchi, yovni tanituvchi va uning hiylalariga qarshi sabot bilan kurashuvchi g'oyaviy rahnamo sifatida g'aydalanadi.

Shoiraning "Baxshiyona" turkumidagi "Ertakdan so'ng" she'rida turg'unlik yillaridagi paxta yakkaxokimligi bilan bog'liq muammolar tasviri beriladi. Ushbu she'r voqeband bo'lib, uning olti bandi 4 misrali, ilk va so'nggi bandi 5 misradan iborat.

She'ning lirik subyektini qiyinchiliklardan ezilgan qiz. She'ning ilk bandida lirik subyektning ertakdagi shohning kenja qizi bo'lishni orzu qilishi berilgan (band "shohning kenja qizi bo'lsam, gulro'yli" refren misrasini ilk bandda va so'nggi bandda takrorlash orqali shakllangan) band bilan boshlanadi:

Bir kungina malikaga aylansam...

Shohning kenja qizi bo'lsam, gulro'yli.

Liboslarim bulutlardan tikilsa,

Dunyo g'ami ertaklarda o'qilsa,

Shohning kenja qizi bo'lsam,
gulro'yli.[10,20]

Shoira qizning kechinmalarini ertakka xos shohning qizidagi barcha imkoniyatlarning

borligi motividan o'z davridagi paxta yakkahokimligi, ayollarning og'ir va mashaqqatli mehnati, ayollarning o'zini yoqishi kabi dolzarb muammolar tasvirini berishda foydalanadi:

Ko'zlarimdan silqqan qonli tomchilar,

Adog'i yo'q egatlarda tommasa.

Turkistonning mohitobon qizlari

Gulxanlarga qo'shilishib yonmasa...[10]

She'ning xotima vazifasini bajaruvchi so'nggi bandida lirik subyektning ritorik so'roqlar asosidagi xitoblari va orzusi beriladi:

Ertakdan so'ng... sira yerga tushmasam,

Bir kunga malikaga aylansam. [10,21]

She'ning oxirida yondosh matn vazifasini bajaruvchi muallif fikri unda berilgan g'oyaviy mazmuni tushunishga imkon beradi:"Biz turg'unlik yillari deb atagan yillar nazdimda og'ir, noxush tushga, asta-sekin ta'sir qiladigan shirin og'uga, fojialar bilan insonni aldagan, ruhini iztirobga, o'kinchga soladigan ertakka o'xshaydi." [10,21]

"Yo'qolgan ishonch yoxud yolg'onchi shoh haqida" voqeband she'rida shoira ertaklarga xos shoh obrazini stilizatsiya qilish, folklorga xos ma'lum bir obrazlarni zamonaviy badiiy asarlarga to'g'ridan to'g'ri ko'chirish, qaysidir davrda yashagan yolg'onchi shohga ritorik murojaat qilish orqali paxta yakkaxokimligi, millatning tili va tarixining unutishilishi, jaholatning avj olishi kabi

muammolar tasvirini beradi. She'r sarlavhasidan so'ng rivoyat degan izoh qo'yilgan bo'lsa-da, unda rivoyatga xos tasvir yo'q. She'rda zamon (kategoriyasi) qadim o'tmishga qaratilgandek ko'rinadi, biroq she'r matnidagi kechinmalar silsilasidan uning yaqin o'tmishdagi voqealar ta'sirida shakllangani ayon bo'ladi:

Yolg'onchi shoh, yolg'onchi shoh,

Yolg'onchilarning shohi.

Qora terga botgan xalqning

Neda edi gunohi?

Paykallarda umri o'tib,

Ko'zlarida tomsa qon.

Sharaf deya evaziga yozding quruq dasturxon.[10,22]

She'rda retrospeksiya asosida lirik subyektning yoshligida ishongan tuzum oxiri o'z xalqini qul qilgan shaxslar hukmronligiga asoslangani haqidagi armonlari ifodasi bilan yakunlanadi:

O'zbekiston jarohati

Yuragimga aylanar,

Menku sodda go'dak edim,

Yo'llaringga sochgan gul.

O'sha ishonch evaziga

Egatlarga qilding qul.[10,24]

XULOSA

Istiqlool davri o'zbek adabiyotida folklordan foydalanish tamoyili taraqqiy etdi, mazkur davr she'riyatida sintezlashgan va stilizatsion folklorizmlar asosida yuzaga kelgan sintez shoirlar tomonidan istefoda qilindi. Ana shunday ijodkorlardan biri Sharifa Salimova bo'lib, u baxshiyona asarlar yaratib, mustabid tuzum va turg'unlik yillarining keyingi davr uchun keltirgan ayanchli oqibatlarini: paxta yakkahokimligi, Orolning qurishi, til va tarixning unutilishi, ayollarning mashaqqatli turmush tarzi kabi muammolar tasvirini berdi. Shoira ushbu g'oyaviy maqsadini xalq dostonlari, ertakka xos obraz va motivlar stilizatsiyasi orqali amalga oshirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Eshanova Z. Halima Xudoyberdiyeva ijodida baxshiyona // Til va adabiyot.uz, 2024. – №19. – B.34-36. <https://tilvaadabiyot.uz/>
2. Mirzayeva S. O'zbek realistik adabiyotida folklor an'analari. – Andijon, 2005. – 60 b.
3. Suvonova J. Hozirgi o'zbek she'riyatida badiiy izlanishlar (Usmon Azim ijodi misolida). Filol. fanlari nomz. ... diss. – Toshkent, 2000.
4. Shukurov N. So'z sehri – she'r mehri. – Samarqand: Zarafshon, 1992.
5. Buriyeva F.N. Hozirgi o'zbek she'riyatida janrlar va shakllar rang-barangligi (Usmon Azim va Xurshid Davron misolida). Filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. – Samarqand, 2023.
6. Xoliqova D. Usmon Azim ijodida xalqona motivlar // O'zbek tili va adabiyoti. 2009. – № 6. 71-74 betlar.

7. Jumanova Sh.I. Usmon Azim she'riyatida peyzaj tipologiyasi. Filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. – Farg'ona, 2023.
8. Дарвин М.Н. Циклизация / Теория литературных жанров : учеб. пособие ... / М.Н.Дарвин, Д. М. Магомедова, Н.Д.Тамарченко, В. И.Тюпа; под ред. Н.Д.Тамарченко. — М.:Академия, 2011. – С157-173.
9. Quronov D.va boshq. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 408 b.
10. Sharifa Salimova. Tanlangan asarlar. She'rlar. – Toshkent: Adabiyot, 2022. – 480 b.